

Mashg'ulotning maqsadi

O'quvchilar yil fasllari va ularning o'zgarish sabablari haqida bilimga ega bo'ladi. Ular fasllarning qanday almashinishi, har bir faslga xos o'zgarishlarni kuzatishni va tabiatdagi o'zgarishlarning sabablarini tushunishni o'rganadi.

Mashg'ulot davomiyligi

35 daqiqa

Interfaol resurslar

Platformadagi interfaol resurs **1-sinf Tabiiy fan (science)** darsligining **10-mavzusi 34-37-sahifalaridagi** ma'lumotlar asosida tayyorlangan.

Muhim va asosiy nazariy qism

Yer Quyosh atrofida aylanayotganda, uning turli qismlari turli vaqtlarda ko'proq yoki kamroq quyosh nuri oladi. Shuning uchun **to'rt fasl** hosil bo'ladi:

 **Bahor** – Ob-havo isiy boshlaydi, daraxtlar kurtak chiqaradi, qushlar sovuq o'lkalardan qaytib keladi.

 **Yoz** – Havo eng issiq bo'ladi, kunlar uzoq davom etadi, maktabda ta'til bo'ladi.

 **Kuz** – Barglar sarg'ayadi va to'kiladi, havo soviy boshlaydi, ba'zi qushlar iliq o'lkalarga uchib ketadi.

 **Qish** – Havo sovuq bo'ladi, qor yog'adi, hayvonlar qishga moslashadi.

STEM fanlar bilan integratsiyasi

- ◆ **Tabiiy fanlar** – Fasllarning tabiat va hayvonot olamiga ta'sirini o'rganish.
- ◆ **Matematika** – Kunlar uzunligini hisoblash va harorat farqini solishtirish.
- ◆ **Texnologiya** – Haroratni o'lchash uchun termometrdan foydalanish.
- ◆ **Informatika** – Kompyuter va mobil ilovalarda ob-havo ma'lumotlarini kuzatish.

Qiziqarli fakt

Yerning **shimoliy** va **janubiy** yarimsharlarida fasllar teskari bo'ladi! Masalan, bizda dekabrda qish boshlansa, Janubiy yarimsharda yoz boshlanadi. Shu sababli **Avstraliyada Yangi yil bayrami yozda nishonlanadi**, odamlar esa qor o'rniga dengiz bo'yida quyoshda dam olishadi!